

XOREOGRAF AMALIYOTIDA MUSIQIY MADANIYATNING O‘RNI

Durdona Abduxakimova

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
“Xoreografiya jamoalar rahbari” kafedrasida dotsenti
durdona.abdUXakimova@bk.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20520381>

Annotatsiya: Ushbu maqolada xoreografning amaliy faoliyatida musiqa va xoreografiya janrlarini chuqur tushinish, ilmiy-ijodiy ishlarni zamon talablari darajasida ahamiyatini oshirish va xoreografik asar yaratishda musiqashunos bilan xoreografning o‘zaro bog‘liq ishlarining samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: musiqiy janr, yalla, mumtoz, Maqom, Mavrigi, klassik musiqa, kompozitor, xalq musiqasi, kuy, qo‘shiq, zamonaviy musiqa, sayqal, musiqiy xazina, bastakor, xonanda, ifoda etish.

Inson va jamiyat ongini o‘zgartirishda, shaxs ruhiyatiga ta’sir o‘tkazishda, odamlarni harakat va junbushga keltirishda musiqa va raqsning ahamiyati beqiyosdir. Musiqa va xoreografiya san’ati asarlarining asosiy ma’no-mazmunini badiiy g‘oyalar tashkil etib ularni biz ko‘zlangan maqsadga xizmat qiladigan yetakchi fikrlar deb bilamiz.

Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etish va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantirib ma’naviy dunyoqarashini shakllantiradi. U inson hissiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, tinglovchilarni nafosat olamiga olib kirish va g‘oyaviy-axloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir. Ulkan qomusiy olim Abu Nasr Forobiy “Musiqa nafaqat insonlarni tarbiyalaydigan, balki uning ruhini davolaydigan omil” deb ataydi. Musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz. Musiqa inson hissiy kechinmalari, fikrlari va tasavvurlarini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san’at turidir. Uning mazmuni o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat bo‘ladi. Shu bois yoshlarda musiqa madaniyatini tarbiyalash, musiqiy janrlar bilan tanishtirish va ularni chuqur o‘rganishi kelajakda musiqani to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Buyuk ustozlarimizni musiqiy meroslari musiqiy-estetik tarbiya muammolarini hal etishda noyob manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu asarlar tomoshabinlarning ongi va yuragini hayajonga soluvchi asarga aylanadi. Tabiiy ravishda musiqiy badiiy obrazlar, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning realistik ifodasi raqslar orqali aks ettiriladi. Musiqa to‘g‘ri tahlil qilinsa, raqs ustida ishlash chog‘ida uning dramaturgiyasi aniq va batafsil lison orqali yoritiladi.

Har bir xoreografning sahnalashtirish amaliyoti musiqiy kompozitsiya qonunlarini nazariy jihatdan chuqur bilishidan boshlanadi. Bu bilimlar xoreografga raqs kompozitsiyalarini yaratishda asosiy yo‘l-yo‘riq vazifasini o‘taydi, raqsning tartibi, uyg‘unligi va mazmunini to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi. Shu bois, xoreografning amaliy faoliyatida kompozitsiya qonunlarini, musiqa va xoreografiya janrlarni, raqs lisoni tarkibini chuqur tushinish va ularni sahnada tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xoreografik kompozitsiya asardagi barcha unsurlarni shunday tasvirlaydiki, natijada unda bironta ham ortiqcha unsur qolmaydi. Har biri asar butunligida o‘zining aniq funksiyasiga ega bo‘lib, muayyan g‘oyaviy-badiiy yuk tashiydi. Bu uning garmoniyasi va yaxlitligini ta’minlaydi, asarning ta’sirchanligini oshiradi va tomoshabinlar uchun jozibali bo‘lishini ta’minlaydi. Badiiy ta’sir vositalari juda katta kuchga ega bo‘ladi. Bu g‘oyalar hayotdan olinib badiiy talqinlar asosida

bayon etiladi va tomoshabinda muayyan taassurot uyg'otadi. Badiiy mushohada obrazlar ijodkor ko'nglidan chiqib, voqelikka ko'chib o'tadi.

Xoreografik asardagi shakl komponentlarini mazmunni shakllantirish va ifodalash, ularni eng qulay tarzda uyushtirish, musiqiy kompozitsiyaning zimmasidagi vazifa sanaladi. Bu albatta bo'lajak xoreografik asarda yoki raqsda ilgari surilayotgan fikrni ifoda etishga yordam beradi. G'oya hamma ishning negizi bo'lib - xoreografik jihatdan yaratilmagan saxna ko'rinishining dastlabki hayoliy tasavvuri deb xisoblanadi. Ijodiy va tadqiqot izlanishlar jarayoni esa to'g'ri musiqiy asarlar tanlov qilishdan boshlanadi.

Shulardan biri sifatida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi va Yunus Rajabiy nomidagi Milliy musiqa sanati instituti professor-o'qituvchilar bilan o'zaro hamkorligida yaratilgan “Raqsning nazmu-navosi” deb nomlangan sahnalashtirilgan raqs kechasini keltirish mumkin. Spektakl premyerasi 2024-yil 11-iyun kuni Muqimiy nomidagi musiqiy drama teatrida bo'lib o'tdi. Unda oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida innovatsion-ijodiy hamkorlik namunasi alohida ahamiyat kasb etdi. Taqdim etilgan raqs spektaklida ilk bora insoniyat qalbiga ilhom bag'ishlab, dunyoning go'zalligiga sayqal berish uchun Navo (kuy) va Sado (raqs) hayotga kirib kelishi, “Navruz” bayramini tug'ilishi va afsonaga aylangan Shams-u-Qamar muhabbati, musiqa va raqsni muhim tibbiy vositalar jumlasiga kiritgan buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino, jaholat qurboniga aylangan Nurxon siymolari milliy musiqa va xoreografiya orqali gavdalantirildi.

Sahnada xalqimizning o'lmas musiqi xazinasini, o'zbek milliy musiqiy san'atining qadimiy va yuksak janrlaridan biri hisoblangan “Maqom” qo'shiqlari, Faxriddin Sodiqov va Abdulahat Abdurashidov lirik kuylari, ishqni va visolni tarannum etuvchi “Mavrigi” qo'shiq va yallalari Jasur Muxamedov, Iles Arabov ijrosida yangradi.

Shu bois “Raqsning nazmu-navosi” nomidagi raqs asarda o'tmish va bugunni uyg'unlashtirgan milliy musiqiy obrazlar yorqin ifodasini topdi.



Ushbu bu tanlangan musiqiy asarlar qahramonlar qiyofasini, ularning o'zaro aloqasining ifodalashda aksini topgan bo'lsada, yosh xoreograflar milliy qahramonlarni ichki olamini ochib berish, ularning qalbi, milliy ruhi, o'zbek xalqiga xos bo'lgan xususiyatlardan iborat milliy hislatini ham ko'rsatib berishga intilishib teatr sahnasida ishonchli tarixiy vaziyatni yaratishdi. Har bir sahna ko'rinishlari bir-birini to'ldirib dinamik ravishda rivojlanib bordi. Asar qahramonlari bir-biriga bo'lgan munosabatlari, hissiyotlari va o'zaro to'qnashuvlari bilan tomoshabinni e'tiborini voqeaga tortib, o'ziga jalb etadi. Yosh talaba-xoreograflar musiqiy ifodaviy vositalar, raqs

xarakatlari va pantomima kabilarni organik uyg'unlashtirish bilan spektakl dramaturgiyasini, syujetini rivojlantirishiga, bosh qaramonlar xarakterini ochib berishga erishishdi. Mazkur musiqiy – xoreografik spektaklda barcha ustoz va shogirtlar emotsional to'laqlonligi bilan spektaklni eng yuqori nuqtasiga olib chiqishdi. Yaratilgan asarni muvaffaqiyatini belgilab beradigan eng asosiy omillardan yana biri shundaki, unda o'zbek milliy musiqasiga xos jihatlar hamda raqslar yuqori darajada o'z ifodasini topgan. Musiqiy–xoreografik asar ustida ishlash chog'ida musiqashunoslar va xoreograflar bir-biri bilan o'zaro bog'liq ishlarining samaradorligi yana bir bor isbotlandi. “Raqsnng nazmu-navosi” milliy xoreografik spektakl o'zbek milliy musiqa va milliy raqslar bilan yaqindan tanishishlari uchun yangi avlod yoshlariga kerakli manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, haqiqiy san'at asari iste'dodlarning mahorati bilan uyg'unligida tug'iladi. Mahorat esa ko'plab avlodlarning eng sara an'alarini va tajribasini saralab to'plagan maktabda singdiriladi. G'oya, musiqa, dramaturgiya va xoreografiyani bir-biri bilan o'zaro bog'liq ishlarining yaxlit zanjiri vujudga keladi. Barchasining ijodi yagona maqsadga xizmat qiladi. Xoreografik asarlarni tahlil qilib shu narsaga ishonch hosil qilish mumkinki, ular qiziqarli musiqiy to'xtam, yorqin musiqiy materialdan va dramaturgiyaning yaxlitligi bilan ajralib turadi, ya'ni ularning aniq, yaxshi ishlab chiqilgan g'oyasi obrazlarda ishonchli namoyon bo'lishi ko'rinib turadi. Shuning uchun bu asarlar tomoshabin e'tiboriga sazovor bo'ladi va davrlar sinovidan muvaffaqiyatli o'tadi.

Sharqning buyuk mutafakkirlari “Eng katta boylik - ilm va aql, eng buyuk meros – chiroyli tarbiya, eng katta faqirlik – ilmisizlikdir” deb aytishgan. Zamonaviy ilmga erishishga, ma'rifatli bo'lishga va yuksak ma'naviyatga ega bo'lishga intilish har bir insonning hayotiy ehtiyoji bo'lishi kerak.¹ Yosh avlodning ma'naviy va estetik tarbiyasini yuksaltirish, ular o'rtasida o'zbek milliy musiqa va raqs san'ati namunalarini keng targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan xoreografiya san'atini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.²

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-j. T.:2000
2. Abdusakimova D.M. Raqs kompozitsiyasi asoslari. O'quv qo'llanma.-T.:2020
3. Usmanova G.N. Raqs kompozitsiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: “Fan ziyosi”, 2022. – 152 b.
4. Xudoynazarova Sh.O'zbek xoreografiya san'ati namunalarini. O'quv qo'llanma T., “Fan ziyosi” 2023.
5. Алексидзе Г. Школа Балетмейстера. Учебная литература. – М., 2013.
6. Смирнов И. Искусство балетмейстера. Учебная литература. – М., 1986
7. Захаров Р. Сочинение танца. Учебная литература. – М., 1983.

¹ 28.01.2020 даги Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси

² <http://elibrary.ru/item.aspx?id=43816162>